



EOC
EUROASIAN
ONLINE
CONFERENCES

ENGLAND CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON
MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND
EDUCATION**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi digital object
identifier

eoconf.com - from 2024



INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION: a collection scientific works of the International scientific conference – London, England, 2025. Issue 4

Languages of publication: Uzbek, English, Russian, German, Italian, Spanish

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference «**INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION**». Which took place in London , 2025.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.





Kambag'allikni qisqartirishda xalqaro tajriba va O'zbekiston amaliyoti

Ne'matillayev Lazizbek

Farg'ona davlat universiteti tarix fakultet
Yurispredensiya yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada kambag'allikning huquqiy sabablari, milliy qonunchilikda mavjud huquqiy kafolatlar, xalqaro huquqiy asoslar hamda ilgari surilgan taklif va tashabbuslar o'rganilgan. Kambag'allikni kamaytirishda fuqarolarning mehnat, ta'lim, ijtimoiy ta'minot sohalaridagi huquqlarini ta'minlashning muhimligi yoritilgan. Shuningdek, kambag'allikni qisqartirishda qanday xalqaro tajribalar qo'llanilayotgani hamda O'zbekistonning amaliyoti haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: kambag'allik, milliy qonunchilik tizimi, xalqaro tajriba, O'zbekiston amaliyoti hamda yurtboshimizning kambag'allikni qisqartirish jarayoniga munosabatlari.

Аннотация: В статье рассматриваются правовые причины бедности, правовые гарантии, предусмотренные национальным законодательством, международно-правовые рамки, а также выдвинутые предложения и инициативы. Подчеркивается важность обеспечения прав граждан в сфере труда, образования и социального обеспечения для сокращения бедности. Также рассматривается международный опыт сокращения бедности и практика Узбекистана.

Ключевые слова: бедность, национальная законодательная система, международный опыт, узбекская практика, отношение главы нашего государства к процессу сокращения бедности.

Abstract: This article examines the legal causes of poverty, legal guarantees available in national legislation, international legal frameworks and proposals and initiatives put forward. The importance of ensuring citizens rights in the areas of labor, education and social security in reducing poverty is highlighted. It also discusses international experiences in reducing poverty and the practice of Uzbekistan.

Keywords: poverty, national legislative system, international experience, Uzbek practice and the attitude of our head of state process of poverty reduction.

Kambag'allik – bu moliyaviy resurslarning yetishmasligi, ya'ni odamlar yoki jamiyatlarning asosiy ehtiyojlarini qondira olmaslik holatidir. Nafaqat insonlar moliyaviy resurslar yetishmasligidan kambag'aldir, balkim huquqiy ongi va bilimsizligida ham kambag'allik alomatlarini ko'rish mumkin.

Bugungi kunda kambag'allik muammosi nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy, balki huquqiy jihatdan ham chuqur tahlilni talab qilmoqda. O'zbekiston Respublikasida aholini kambag'allikdan ozod etish maqsadida keng qamrovli islohotlar olib borilmoqda. Kuni kecha muhtaram Prezidentimiz Shavkat





Mirziyoyev tomonidan Namangan shahrida «Kambag'allikdan farovonlik sari» nomli forum bo'lib o'tdi. Nafaqat bu g'oyani O'zbekistonda, balkim xalqaro hamjamiyat bo'lmish Birlashgan Millatlar Tashkilotining 80-sessiyasida ham ilgari surdi. Prezidentimiz o'zining nutqi davomida shunday fikr bildirdi: "Kambag'allik bu taqdir eemas, uni dadil rahbarlik, intizomli ijro va innovatsion hamkorlik bilan yengib o'tish mumkin". Shuning uchun Shavkat Mirziyoyev O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish g'oyasining asoschisi va muallifi sifatida qaraldi va xalqaro hamjamiyat tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda.

Statistik ma'lumotlarga keladigan bo'lsak, kambag'allik darajasi 2024-yil yakuniga ko'ra, O'zbekistonda 11 foizdan 8,9 foizga kamaygan edi. Bugungi kunga kelib kambag'allik darajasi 6,8 foizni tashkil etmoqda. Ta'kidlanishicha, banklar aholi bilan bog'lanib, aholi bandligini ta'minlashga ham hissa qo'shmoqda. Shuni ta'kidlash joizki, tadbirkorlik bilan shug'ullanishni istagan kambag'al oilalarning o'z bizneslarini boshlash uchun qo'shimcha moliyaviy imkoniyatlar yaratish haqida ham prezidentimiz taklif hamda tashabbuslar kiritdi.

Mavzuga huquqiy nuqtai nazardan yondashish – bu kambag'allikni qisqartirish jarayonida samarali siyosat yuritishning zaruriy shartidir. Kambag'allik ko'pincha iyyimoiy-iqtisodiy omillar bilan bog'liq bo'lsada, uning chuqur ildizi huquqiy muhit bilan bevosita bog'liq. Biz bilamizki jamiyatimiz to'laqonli mustahkam emas, bu bilan nma demoqchiman, ko'plab korxona, muassasa va tashkilotlarda mahnat huquqlarining buzulishi uchrab turadi. Bu holat ijtimoy himoya tizimining yetarli darajada faoliyat yuritmayotganidan dalolat bermoqda. Shunga qaramay, bu omillar bizning Asosiy qonunimiz – Konstitutsiyamizda ham belgilab qo'yilgan. Misol uchun, konstitutsiyamizning 43- moddasidan shunday yozilgan: "davlat fuqarolarning bandligini ta'minlash ularni ishsizlikdan himoya qilish, shuningdek, kambag'allikni qisqartirish choralarini ko'radi". Bundan tashqari milliy qonunchilik tizimlarimiz, masalan, Mehnat kodeksida ham bandlik, teng ish haqi va mehnat sharoitlari kabi normalar mustahkamlab qo'yilgan. Nafaqat konstitutsiyamiz hamda milliy qonunchiligimizda bu haqida so'z brogan bo'lsada, xalqaro tashkilot bo'lmish BMT ham bu masalaga befarq emas. U o'zining maqsadlaridan birida 2030-yilgacha barcha joylarda barcha shakllardagi kambag'allikni qisqartirishni ta'kidlab o'tgan. Sshu bilan birgalikda, O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish borasida yig'ilgan tajribalar yuzasidan fikr almashildi hamda aholi faravonligini yanada oshirish, inklyuziv iqtisodiy o'sishni ta'minlash, barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga qaratilgan istiqboldagi rejalar va yangi tashabbuslarga e'tabor qaratildi.

O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirishda xalqaro tajriba qanday amalga oshirilmoqda?





Yuqoridagi savolga quyidagicha javob berishimiz mumkin. O'zbekistonda Iqtisodiyot taraqqiyoti va kambag'allikni qisqartirish vazirligining vaziri Jamshid Qo'chqorov o'z sahifasida: "Kambag'allikni qisqartirishda xitoy tajribasidan foydalanmoqdamiz" deb o'z fikrini bildirdi. Shu yerda Xitoy tajribasiga to'xtalsak. Xitoy tajribasi nima?

Xitoy tajribasi iqtisodiy rivojlanish, texnologik innovatsiyalar va dunyodagi yetakchi kuchga aylanishga qaratilgan keng ko'lamli yondashuvni o'z ichiga oladi. Bu mamlakatning jahon iqtisodiyotida o'z o'rnini mustahkamlash, texnologik sohalarda rahbarlikni qo'lga kiritish va iqtisodiy, ijtimoiy transformatsiyani amalga oshirish orqali olib borilayotgan ko'p qirrali tajriba hisoblanadi.

O'zbekistonda Xitoy tajribasi asosida qanday ishlar amalga oshirilmoqda?

Birinchidan, Xitoy tajribasi asosida kambag'allikdan chiqarish dasturi O'zbekistonning 14 ta tumanida amalga oshirildi. Jumladan, 2025-yildan boshlab ushbu dastur butun respublika bo'ylab joriy etilishi koo'zda tutilmoqda. Ikkinchidan, davlat investitsiya dasturlari ham shu asosda shakllantirilishi belgilandi. Shunindek, bu dasturlarning asoschisi va mallifi sifatida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev e'tirof etildi.

Kambag'allikni qisqartirish bo'yicha olib borilayotgan davlat siyosati yuqori darajada bo'lsa-da, bir nechta huquqiy takliflar mavjud. Birinchidan, huquqiy savodxonlikni oshirish. Bu sohada faoliyat yuritayotgan tashkilotlar juda ko'p, lekin bizga son emas, balki sifat kerak. Shuning uchun aholiga huquqiy maslahatlar beradigan yuridik xizmatlar sifatini yanada oshirish zarur. Ikkinchidan, mahalliy darajadagi qonun ijrosini monitoring qilish. Bu nimani anglatadi? Bu shuni anglatadiki, mamlakatimizning chekka hududlarida mahalliy davlat hokimiyati hamda fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlarining faoliyati nisbatan sust. Sababi ular o'zlariga kelib tushgan buyruqlarning aksariyat qismini qog'ozda bajaradi, lekin amalda bu borada darak yo'q. Shuning uchun qonunlarni ishlab chiqarayotgan davlat organlari qonunlar real hayotda qanday ishlayotgani ustidan nazoratni amalga oshirsa, m=kambag'allikni qisqartirishga o'z hissasini qo'shgan hisoblanadi. Uchinchidan, aholi orasida huquqiy-tashviqot ishlarini lozim darajada olib borish kerak. Bu qandayt amalga oshiriladi? Aholining turli qatlamlari bilan suhbat olib borish va ularning ehtiyojlari uchun zarur bo'lgan omillar haqida ma'lumot yig'ish kabi jarayonlarni qamrab oladi. Chunki ularning orasidan kambag'allikni huquqiy jihatdan kamaytirishga oida tashabbuskorlar chiqishi mumkin. Biz mazkur jarayon orqali tadbirkorlik bilan shug'ullanishni istagan kambag'al oilalarni aniqlab olamiz hamda ularning o'z bizneslarini boshlash uchun qo'shimcha moliyaviy imkoniyatlar yaratishga harakat qilamiz. "Yuqorida keltirilgan taklif va fikrlarni amalga tatbiq etsak, kambag'allikni qisqartirish siyosatida muhim ahamiyat kasb





etadi"- deb o'ylayman. Chunki kambag'allikka qarshi kurashda huquqiy yondashuvning ahamiyati nihoyatda katta.

Kambag'allikni qisqartirishda huquqiy mexanizmlar muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular ijtimoiy adolatni ta'minlash, kam ta'minlangan qatlamlarni himoya qilish va ularning farovonligini oshirishda asosiy vosita hisoblanadi. Huquqiy yondashuv orqali kambag'allikni kamaytirishga doir ijtimoiy- siyosat qonunlar va normativ-huquqiy hujjatlar asosida tizimli tarzda amalga oshiriladi. Huquqiy mexanizmlarning takomillashtirilishi yangi qonunchilik tashabbuslari va ijtimoiy yordamning maqbulligini oshirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari huquqiy bilimlarni keng targ'ib qilish va fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirish kambag'allikka qarshi kurashish siyosatining samaradorligini yanada kuchaytiradi. Natijada, huquqiy mexanizmlar kambag'allikni qisqartirishda kompleks va uzluksiz jarayonni ta'minlashda hal qiluvchi rolni o'ynaydi. Ularni takomillashtirish orqali ijtimoiy himoya tizimini yanada samarali qilish, fuqarolarning huquqlarini himoya qilish va ularning hayot sifatini yaxshilash mumkin bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Konstitutsiya. /2023. Toshkent
2. Mehnat kodeksi. /2025. Toshkent
3. BMT nizomi/ <https://gk-usbekistan.de>
4. <https://www.gazeta.uz>
5. <https://uz.wikipedia.org>

